

"O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishda xalqaro modellarni qo'llash yo'llari"

Baxtiyorova Durdonax Ixtiyor qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Turizm 1- kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur tezisda O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari hamda bu jarayonda xalqaro modellarni qo'llash yo'llari tahlil qilinadi. Dunyodagi ilg'or tajribalar asosida ekologik turizmni barqaror rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish vamaahalliy aholining farovonligini oshirish kabi maqsadlarga erishish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, O'zbekiston sharoitiga mos keladigan ekoturizm strategiyalari ishlab chiqishga doir takliflar beriladi.

Kalitso'zlar: ekologik turizm, barqaror rivojlanish, xalqaro model, tabiiy resurslar, milliy bog', atrof-muhitni muhofaza qilish, mahalliy tajriba.

Abstract. This thesis analyzes the issues of developing ecotourism in Uzbekistan and the ways of applying international models in this process. Based on the best practices in the world, the possibilities of achieving such goals as sustainable development of ecotourism, environmental protection, and improving the well-being of the local population are considered. Also, proposals are made for the development of ecotourism strategies that are suitable for the conditions of Uzbekistan.

Keywords: ecotourism, sustainable development, international model, natural resources, national park, environmental protection, local experience.

Bugungi kunda ekologik muammolar butun dunyo miqyosida dolzarb masalaga aylangan bo'lib, bu holat turizm sohasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Aholining ekologik ongini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni asrash masalalari turizmning yangi yo'nalishi — ekologik turizm rivojiga turtki bo'lmoqda.

Ekoturizm atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda sayyohlik faoliyatini olib borish, mahalliy aholi farovonligini oshirish va madaniy merosni asrashni maqsad qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-sonli Farmoni mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda tub burilishni, yangi bosqichning zaminini, turizmda istiqbolli islohotlarning sharoitlarini yaratdi. Prezident

farmonida: “Mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish, an’anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa salohiyatli turlarini – ekologik turizmni ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish” belgilangan.

Bu farmon mamlakatimizda turizmning barcha turlarini bir tekis rivojlantirish masalalarini tatbiq qilishga, turizmni hududiy va mintaqaviy rivojlantirish uchun asosiy dastur bo‘lib xizmat qiladi. Shuni e’tiborga olgan holda va “Farmon”da ekologik turizmni rivojlantirish alohida ta’kidlanganligi ham ekologik turizmni jadal rivojlantirishning jiddiy muammolarini aniqlashimiz va bu muammolarning yechimlarini ishlab chiqishning ilmiy-amaliy tadqiqotlarini kuchaytirishimiz vaqti kelganini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda ekoturizmning rivojlanishi nafaqat ma’naviyatimiz, ilm-fan, madaniyat, ma’rifat, tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni jalb qilish, biologik xilma-xillikni saqlash muammolarini hal qilishga, balki shu bilan birga iqtisodiy masalalarni, mahalliy xalqimizning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini yaxshilash, yangi ish o‘rinlari bilan ta’minlash, mamlakatimiz iqtisodiyotining o‘shishiga katta hissa qo‘shadi.

Mamlakatimiz dunyoda ekologik turizm resurslariga boy davlatlar qatorida turadi va Markaziy Osiyoda, dunyo mamlakatlarining o‘zaro aloqalarini geografik jihatdan bog‘lovchi davlatdir. Shu sababli ichki, xalqaro turistik oqim va ekoturistik oqim ham bizda kuchayishining juda katta, salohiyatli imkoniyatlari bor.

Ekologik turizmni rivojlantirishdagi ko‘plab muammolar ham mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirishga kirishganimizdan keyingina aniqlanmoqda. Hozirgi kunga kelib, Respublikamizda ekologik turizmni rivojlantirishda yechimlari jiddiy bo‘lgan muammolar ham yuzaga chiqmoqda. Bu muammolarning birinchi navbatda o‘z yechimini kutib turgani — ekoturizm uchun malakali kadrlar tayyorlash hisoblanadi.

Ekoturizmning maqsadini amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish talab etiladi:

Ekoturizm industriyasini shakllantirish uchun maxsus qonunlar ishlab chiqish va ularning huquqiy mexanizmini yaratish;

Ekoturistik fan, ta’lim va amaliyotning nazariy asoslarini ishlab chiqish;

Aholining ekologik ongi va madaniyatini ekoturizm orqali o‘stirish;

Ekoturizm bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash;

Ekoturizm monitoringini va istiqbolini olib borishni yo‘lga qo‘yish;

Milliy davlat hududini ekoturizm bo‘yicha rayonlashtirib chiqish;

Biologik xilma-xillikni saqlash.

Ilmiy tadqiqot muassasalari va mutaxassislarning ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda ekoturizmning rivojlanish yo'nalishlari va istiqbollari tabiat qonuniyatlari va geotizimlar barqarorligi bilan bog'liq holda shakllanmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ekoturizmning ilmiy va metodologik asoslarini ochib berishga qaratilgan bir qator ilmiy izlanishlar olib borildi. Nomzodlik va magistrlik dissertatsiyalari himoya qilindi, ilmiy va o'quv adabiyotlar nashr qilindi. An'anaviy ustoz-shogird tizimida ekoturizm va o'lkashunoslikning nazariy jihatlari o'rganildi.

Ammo bu boradagi tahlillar ekoturizm yo'nalishida tabiatni, geotizimlarni yaxshi biladigan, tabiatda va uning ekstremal sharoitlarida guruhni boshqara oladigan, zarur bo'lganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish malakasiga ega bo'lgan bakalavr kadrlar tayyorlash dolzarbligini ko'rsatmoqda. Chunki tarixiy turizm, diniy turizm, tibbiyot turizmi, madaniy turizm kabi yo'nalishlar asosan shahar joylarda, turistlik infratuzilma va servis obektlari yetarli joylarda olib borilsa, ekoturizm asosan tabiat qo'ynida va geotizimlarda tashkil etiladi, ularning aksariyati ekstremalligi bilan ajralib turadi.

Eng muhimi shundaki, ekologik turizmni tashkil qilishda mahalliy aborigen aholi manfaatlarini hisobga olinadi va ekoturistik xizmatlarni amalga oshirish to'liq ularga topshiriladi. Ikkinchidan, davlatdagi shtatlar ma'muriyatining taklif va tavsiyalari ham inobatga olinadi.

Mamlakatdagi tabiatshunos, ekolog va biolog olimlar, ayniqsa, yovvoyi hayvonlarga boy bo'lgan Avstraliyaga moliyaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan turistlarning tashrif buyurishini yaxshi bilishadi. Shu bois ular ekoturistik mahsulotlarni turli-tuman mavzularda tayyorlashadi. Bugungi kunda xalqaro turizmda Avstraliyaning ekoturistik marshrutlari juda ommalashgan bo'lib, katta ekoturistik oqimlarni shakllantirgan. Bu marshrutlar muvaffaqiyat bilan ishlamoqda.

Avstraliya modelining muvaffaqiyatli ishlayotganining eng muhim omillaridan biri shundaki, barcha hududlarda tashkil qilinayotgan ekoturistik xizmatlarga faqat o'sha hududning mahalliy aholisi xizmat ko'rsatadi. Bu usul orqali mahalliy aholi ish bilan ta'minlanadi, qishloqlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari o'z vaqtida hal etiladi.

Bavariya o'rmonlari milliy parkini esa ko'pincha ekologik turizmni rivojlantirishning "Yevropa-2 modeli" deb atashadi. Bu milliy park tashkil qilinishining o'zi ham ekologik turizmni rivojlantirishda yangicha yondashuvlarni qo'llashdan boshlandi. Dastlab, ekologik turizmni tashkil qilishda, milliy parklar va alohida muhofaza etiladigan hududlardan foydalanishda davlat tashabbuskor

bo‘lgan bo‘lsa, Bavariya o‘rmonlari milliy parkini mahalliy hokimiyat tashkil qildi. Ular asosiy e‘tiborni tabiat va uning resurslarini muhofaza qilishda davlatga yordam berish tizimini ishlab chiqishga qaratdilar.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish mavjud tabiiy resurslardan samarali va barqaror foydalanishni ta‘minlaydi. Xalqaro tajribalarni chuqur o‘rganish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish orqali turizm sohasida yangi yo‘nalishlarni yo‘lga qo‘yish mumkin. Shveysariya, Kosta-Rika va boshqa mamlakatlarning ekologik turizmga oid modellarini tatbiq etish O‘zbekistonda ekologik xavfsizlikni saqlagan holda iqtisodiy o‘sishga erishish imkonini beradi. Ekoturizmni rivojlantirish uchun infratuzilmani yaxshilash, mahalliy aholining ishtirokini ta‘minlash va qonunchilikni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu orqali O‘zbekistonning ekologik turizm salohiyatidan to‘laqonli foydalanish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

- 1.O‘zbekiston Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni -Toshkent, 2017
- 2.O‘zbekiston Respublikasining «Turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, 2017.
- 3.Александрова А.Ю. Международный туризм: Учебник-М.:Аспект Пресс,2002-470 с.
- 4.Ердавлетов С.Р География туризма: история, теория, методы, практика - Алматы. 2000 - 336 с.
- 5.Комилова Ф. Халқаро туризм бозори. –Т.: TDIU, 2001. - 64 б.
- 6.Хайитбоев Р., Матякубов У. Экологик туризм.-Самарканд. 2010